



Ulug‘bek RAHMONOV,
Andijon davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: rahmanobulugbek@gmail.com

ADU dotsenti, DSc M.Asanova taqrizi asosida

“WEBSTER DICTIONARY”DA NEOLOGIZMLAR

Аннотация

Maqolada ingliz leksikografiyasining yirik namunasi bo‘lgan “Webster Dictionary” lug‘atining 1961 yilgi nashrida neologizmlarning aks etish tamoyillari tahlilga tortilgan. Unda neologizm tushunchasining lingvistik tabiati, leksik va semantik neologizmlar o‘rtasidagi farqlar hamda ularning lug‘at boyligini oshirishdagi o‘rmini ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Neologizm, Webster Dictionary, leksikografiya, semantik derivatsiya, leksik neologizm, semantik neologizm, lug‘at tarkibi.

НЕОЛОГИЗМЫ В “WEBSTER DICTIONARY”

Аннотация

В статье анализируются принципы рефлексии неологизмов в издании “Webster Dictionary” 1961 года, являющемся важным образцом английской лексикографии. В нем рассматривается лингвистическая природа понятия неологизма, различия между лексическими и семантическими неологизмами, а также их роль в расширении словарного запаса.

Ключевые слова: Неологизм, Webster Dictionary, лексикография, семантическая деривация, лексический неологизм, семантический неологизм, структура лексики.

NEOLOGISMS IN WEBSTER'S DICTIONARY

Annotation

The article analyzes the principles of reflection of neologisms in the 1961 edition of the Webster Dictionary, a major example of English lexicography. It examines the linguistic nature of the concept of neologism, the differences between lexical and semantic neologisms, and their role in increasing vocabulary.

Key words: Neologism, Webster Dictionary, lexicography, semantic derivation, lexical neologism, semantic neologism, vocabulary structure.

Kirish. Ma‘lumki, har qanday tilning izohli lug‘ati nafaqat so‘z boyligini to‘plovchi manba, balki ma‘lum bir davrning madaniy va ilmiy manzarasini ko‘rsatuvchi ko‘zgu hamdir. Biroq tildagi “yangilik” tushunchasi va uning lug‘atlarda qayd etilishi tilshunoslar o‘rtasida turlicha talqin qilinadi. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan ilmiy-texnik inqilob va kosmosning o‘zlashtirilishi tilga minglab yangi tushunchalarning kirib kelishiga sabab bo‘ldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda eologizmlarni klassifikatsiyalashdagi muammolar, xususan, leksik va semantik neologizmlar o‘rtasidagi farqlar hamda ularning lug‘atlarda aks etish darajasi dolzarb sanaladi. Shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki, neologizmlar muammosiga tegishli bo‘lgan adabiyotlarni tahlil qilib chiqishda “neologizm” tushunchasining aniq lingvistik ta‘rifi yo‘qligi ko‘zga tashlanadi.

Bu masala bo‘yicha yozgan mualliflarning ko‘pchiligi “neologizm” tushunchasini ochib berish o‘rniga uning tarjimasini bilan yoki “neologizm” – “yangi so‘z”dir deya ko‘rsatib, sinonimik almashtirish bilan cheklanib qoladilar. Shu bilan birga til yangiligi tushunchasining o‘zi bu mualliflarda haddan tashqari noaniq va nihoyatda sub‘yektivligida qoladi.

Bu haqida rus tilshunos olimi N.I. Feldman ham shunday fikrni ilgari suradi: “Lug‘at tarkibida so‘zlar so‘zlovchi tomonidan real yoshi bo‘yicha emas, balki eskirganligi yoki sezilarli yangiligi bilan farqlanadi” [7].

Biroq “til sezgisiga” murojaat qat‘iy ilmiy jihatdan uncha asossizdek tuyuladi. Chunki har xil til sohiblarida u mos kelmasligi ham mumkin.

So‘zning “neologizm” holatida mavjudligining xronologik chegaralari ham tushunib bo‘lmaydigandir.

Albatta, har bir so‘z o‘zining paydo bo‘lish pallasida neologizmdir. Ammo u qanchalik uzoq vaqt neologizm bo‘lishda davom etishi shubha ostida qolaveradi [2].

Boshqa mualliflar o‘zlarining neologizmlarga bag‘ishlangan ishlarida bu tushunchaning ta‘rifiga umuman to‘xtalmaydilar [3] [4].

Shunday qilib, dunyo tilshunosligida shu vaqtga qadar “neologizm” terminini ozmi-ko‘pmi lingvistik tushunish yo‘q va ko‘pincha mualliflar, neologizmlarga ishlari tushganida, til sohiblarining sub‘yektiv idrokiga murojaat qiladilar (havola qiladilar).

Bu murakkab muammo “Webster Dictionary” mavzusi doirasida oson hal qilinadi.

Biz neologizmlar deganda, “Webster Dictionary” (1934) va “Webster Dictionary” (1961) chiqqan davr oralig‘ida Angliya hamda AQShdagi mashhur iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa o‘zgarishlar munosabati bilan ingliz tilida paydo bo‘lgan so‘zlarni tushunamiz.

Tahlil va natijalar. “Webster Dictionary”dagi neologizmlarni ko‘rib chiqishga o‘tishdan oldin qayd qilish kerakki, neologizmlarning o‘zlarini xarakteriga qarab leksik neologizmlarni, ya‘ni yangidan paydo bo‘lgan so‘zlarni (qarang: R.E. Budagovda neologizmlar-so‘zlar) va semantik neologizmlarni, ya‘ni eski so‘zlarning yangidan paydo bo‘lgan ma‘nolarini (qarang: R.E. Budagovda neologizmlar-ma‘nolar) farqlash kerak[1].

Undan tashqari, barqaror atov so‘z birikmalari ham neologizmlar bo‘lishlari mumkin.

“Webster Dictionary”ga soʻzboshida tuzuvchilar shuni koʻrsatib oʻtadilarki, ingliz tili, boshqa tillar kabi doimiy oʻzgarish va rivojlanish jarayonida turibdi hamda Lugʻat oʻzining soʻzligida bu oʻzgarishlarning hammasini qayd qilishga harakat qiladi. [11]

Lugʻatning muharrirlari va uning taqrizchisining [10] aytishlaricha, “Webster Dictionary”dagi Lugʻatiga 50 mingtaga yaqin yangi soʻzlar va eski soʻzlarning 50 mingtaga yaqin maʼnolari kiritilgan. [11]

Masalan, Paul Bergning 30-yillarning boshidan boshlab to 1952 yilgacha boʻlgan yangi soʻzlarni qayd qiluvchi “Yangi soʻzlar lugʻati” [9] bor-yoʻgʻi 17000 ta soʻzlarni oʻz ichiga olishini hisobga oladigan boʻlsak, bu nihoyatda katta raqamdir.

Na muharrirlar-tuzuvchilar, na “Webster Dictionary”ning taqrizchisi “yangi soʻz” yoki “soʻzning yangi maʼnosi” deganda ular nimani tushunishlarini izohlab bermaydilar. Bu yangi hosilalar qaysi davrga tegishli ekanliklarini va til lugʻat tarkibining qaysi sohasiga mansubligini aniqlashmaydilar.

Shunday qilib “yangi” tushunchasining oʻzi Lugʻat soʻzboshisida va taqrizida yetarli darajada noaniq hamda mujmaldir.

“Webster Dictionary”ni orlatib koʻzdan kechirish hamda uning soʻzligini yuqorida koʻrsatib oʻtilgan P. Berg va M. Rayferning neologizmlar lugʻatlari bilan, yana shuningdek Amerikaning “American Speech” jurnalidagi “yangi soʻzlar boʻlimlarining” baʼzi birlari bilan qiyoslash shuni koʻrsatdiki, “Webster Dictionary”dagi Lugʻatida haqiqatan ham yangi soʻzlar, yaʼni keyingi yillarda tilda paydo boʻlgan soʻzlar, yana shuningdek, tom maʼnosi bilan tilda oxirgi vaqtlarda tarqalgan soʻzlar keng aks ettirilgan. Masalan: arkie – Arkanzas shtatidan koʻchib oʻtuvchi qishloq xoʻjalik ishchisi; around-the-clock – bir kunlik, bir kunga moʻljallangan, rock’n’roll – pokn-rol, ack – zenit toʻpi; baby – sitter – kelib-kitib turadigan (qatnab ishlaydigan) enaga; bikini – ayollarning choʻmilish kostyumi; telegenic – televizorda koʻrsatish uchun qulay; cinerama – sinerama (keng ekranli kino); telecast – televizion koʻrsatuv; colorcast – rangli televideniye koʻrsatuv; interphone – bevosita yaqinlikda joylashgan nuqtalar oʻrtasidagi telefon aloqasi; crypto – qandaydir partiyaning yashirin aʼzosi; feminize – kinoda ayollarning rolini ijro etmoq; barfly – restoranlarning tez-tez kelib turadigan mijoz; motel – avtomobilistlar uchun mehmonxona; tweeter – kichkina mikrofon; barrelchair – kreslning bir turi va koʻplab boshqalar.

Maʼlumki fan va texnikaning kosmosni oʻzlashtirish boʻyicha ulkan muvaffaqiyatlari munosabati bilan, fan va texnikaning misli koʻrilmagan muvaffaqiyatlari munosabati bilan, ingliz tili yangi soʻzlar bilan hamda atov barqaror soʻz birikmalari bilan sezilarli darajada boyidi. Bu soʻzlar va soʻz birikmalari tilda hech mubolagʻasiz soʻnggi yillarda yuzaga keldilar.

“Webster Dictionary” ularni oʻz soʻzligida yetarli darajada toʻliq aks ettirdi. Masalan: sputnik – sunʼiy yoʻldosh; spaceflight – kosmik parvoz; circumlunar – Oy oldidagi, Oy yaqinidagi, Oya yaqin; spaceman – kosmonavt kosmosda (kosmosga) uchuvchi, fazogir; solar battery – quyosh batareyasi (hozirgi kunda ushbu atama oddiy oʻzbeklar orasida ham, kundalik atamaga aylanib borayapti); space medicine – kosmik meditsina; astronaut – astronom, kosmonavt (baʼzi chet mamlakatlar, masalan, AQSh terminologiyasida); spaceship – kosmik kema; space station (yoki platform) – kosmik stansiya; space suit – kosmonavtning kostyumi va koʻplab boshqalar.

Shuni qayd qilish kerakki, Lugʻat va uning tuzuvchilarining aytishlaricha, [11. 6a] fan va texnika sohasida keyingi paytlarda erishilgan jarayonni haddan tashqari toʻliq aks ettiradi. Bu bilan tuzuvchilar Lugʻatda tor maʼnoli

terminologiyani koʻrsatishga qanchalik katta ahamiyat berganliklarini hisobga olinsa, qoʻshilish kerak.

Neologizmlarning paydo boʻlishida nafaqat yangi shakldagi soʻzlar, balki mavjud soʻzlarga yangi maʼno yuklash hodisasi ham muhimdir. Akademik N. Mahmudov qayd etganidek, “Semantik derivatsiya jarayonida mavjud soʻz shakli saqlanib qolgan holda, unga yangi tushuncha yuklanishi lugʻat tarkibini tejamkorlik tamoyili asosida boyitadi” [5. 54]. Bu jarayonni Webster lugʻatidagi satellite – 1) malay, yugurdak, dum, berilgan (sodiq) kishi, tarafdor, ergashuvchi, muxlis, astrom. yoʻldosh (tabiiy), 2) sunʼiy yoʻldosh; umbrella – 1) zontik, soyabon, 2) aviatsiya bilan butkul himoyalash; carlidge – 1) patron, zaryad (oʻqqa yoki qurol ogʻziga joylangan portlovchi modda), 2) patron (sharikli avtoruchkada); drop – 1) tomchi, 2) parashyutda tushish; caravan – 1) furgon (soyabon arava; yuk tashuvchi avtomobil, aravalarda yopiq kuzov), 2) gʻildirakli koʻchma uy, uy-avtopritsep; sharkskin – 1) akulaning terisi, 2) paxta va viskozadan tayyorlangan gazlama, mato; snow – 1) qor, 2) televizor ekranida koʻplab oq va qora nuqtalar koʻrinishidagi toʻsiqlar; brotherhood – 1) birodarlik, qardoshlik, doʻstlik, 2) profsoyuz, kasaba uyushmasi (ayniqsa temir yoʻl ishchilarining kasaba uyushmasi) va koʻplab boshqalar.

“Webster Dictionary” soʻzligini orlatib hozirgi kunda ingliz tilida mavjud ikkita neologizmlar lugʻatlari bilan olib borilgan solishtirishdan aniqlandiki, “Webster Dictionary” ushbu ikkita lugʻatlarda berilayotgan hamma (ayrim kamchiliklardan tashqari) yangi soʻzlarni va eski soʻzlarning maʼnolarini qayd qiladi.

Undan tashqari, “Webster Dictionary”da ingliz tilida eng oxirgi yillarida paydo boʻlgan va albatta, ilgari chiqqan ingliz tili lugʻatlarining birortasida ham qayd qilinmagan. Shu jumladan, yuqorida koʻrsatilgan, 50-yillarning boshida chop qilingan ingliz tili lugʻatlarida ham roʻyxatdan oʻtkazilmagan yangi soʻzlarning ancha-muncha miqdori mavjud. Mana bu soʻzlardan ayrimlari (yana yuqorida sanab oʻtilgan, kosmosning zabt etilishi bilan bogʻliq soʻzlarga qarang): den mother – boy-skautlarning (20-asr boshlarida dastlab Angliyada, soʻng boshqa burjua davlatlarida tuzilgan harbiy-siyosiy xarakterdagi bolalar tashkilotlaridan) birining katta yoshli rahbari; depth – interview – boshqa shaxsning vajlarini, maqsadlarini va h.k. aniqlash maqsadidagi intervyu; countdown – teskari tartibdagi hisob; rocket ship – reaktiv dvigatelli kema va koʻplab boshqalar.

Demak, “Webster Dictionary” ingliz tilida 1950 yildan 1960 yilgacha boʻlgan davrda paydo boʻlgan soʻzlar aks ettirilgan yagona maʼlumotnoma hisoblanadi.

Shunday qilib, “Webster Dictionary”ni neologizmlar boʻyicha (ham ularning miqdoriy, ham davriy qamrovi boʻyicha) ingliz tilidagi eng salmoqli maʼlumotnoma deb hisoblash mumkin.

Izohli lugʻat tilning lugʻat tarkibi holatini, bu lugʻat tegishli boʻlgan uning oʻsha davrdagi rivoji davrida toʻliq aks ettirishga intilishi, oʻz-oʻzidan maʼlumki, har qanday qoʻllab-quvvatlashga loyiqdir.

Biroq neologizmlarning yetarli darajada qatʼiy boʻlmagan tanlovi hamda cheklanmagan darajada jalb qilinish prinsipi lugʻatning ortiqcha yuklanishiga olib keladi. Neologizmlarga, shuningdek, leksikaning boshqa qatlamlariga boʻlgani kabi, tabaqalashirilgan yondashuv zarur.

“Webster Dictionary” neologizmlarga bunday qatʼiy tabaqalashirilgan yondashuvning misoli hisoblanmaydi.

Bu yerda ingliz adabiy tilida haqiqatan ham keng odat tusiga kirgan va hamma yerda qoʻllanilishga erishgan neologizmlar bilan bir qatorda, yoyilganligi, yoki qoʻllanilish sohasi haddan tashqari tor va maxsus soha bilan cheklangan yangi soʻzlar ham kiritilgan. Bular fan-texnikaning, sanʼatning va h.k.larning tor mutaxassislikka oid terminlaridir. Masalan: meson – tez tarqaladigan (chidamsiz) elementar zarra; anoxia

– kislorod yetishmasligining bir ko'rinishi; betatron – betatron (elektronlar tezlatkichi); hydroponics – o'simliklarni to'yimli eritmalarda yetishtirish; patulin – patulin (dori); lox – “suyuq kislorodning” maxsus ilmiy nomi va ko'plab boshqalar.

Lug'at shuningdek “vaqtinchalik so'zlar”, “bir kunlik so'zlar” deb ataluvchilarning, juda qisqa vaqt bo'ladigan va undan tezda g'oyib bo'ladigan neologizmlarning katta miqdorini o'z ichiga oladi. Masalan: babushka – ayollar bosh ro'molining bir ko'rinishi; hula-skirt – yubkaning alohida fasoni yubki; pony-tail – ayollar soch turmagining bir ko'rinishi; opera - slippers – erkaklar tuflisining bir turi; bren – pulemyotning turi va ko'plab boshqalar.

Bunday so'zlar Katta izohli lug'atning so'zligida ham joyga ega bo'la olmaydilar. Chunki ularning tilda yashash davri haddan tashqari qisqadir. Ular lug'at tarkibining uzoq periferiyasidir. Ularni to'plash, S.I. Ojegovning ko'rsatib o'tishicha, tarixiy-hayotiy sharhlar bilan maxsus lug'atning ob'yekti bo'lishi mumkin. [6. 98]

Bundan tashqari, neologizmlarning ko'plari sleng sohasiga aloqador bo'ladilar va ular hozirgi ingliz adabiy tiliga kirmaydilar. Shu boisdan ular umumadabiy til lug'ati bilan qayd qilinmasliklari kerak. Biroq “Webster Dictionary”da ular yetarli darajada ko'p miqdorda (to'g'ri, odatda tegishli belgilar bilan). Masalan: hood – bezori, xuligan (o'g'rilar jargoni); aquabelle – cho'milish kostyumidagi jozibador yosh ayol; hepcat – eng axloqsiz jaz musiqasining ishqibozi; wog – qandaydir O'rta Sharq mamlakatining mahalliy yashovchisi; lulu – ma'lum nuqtai nazardan eng ajoyib inson va ko'plab boshqalar.

“Webster Dictionary” ingliz tilida so'nggi yillarda vujudga kelgan yangi hosilalar bo'yicha eng to'liq ma'lumotnoma hisoblanadi. Unda hech bir mubolag'asiz tilda so'nggi yillarda paydo bo'lgan yangi so'zlar nihoyat darajada keng ko'lamda aks ettirilgan.

Biroq, “Webster Dictionary” (1961) tanqidiy tahlili shuni ko'rsatadiki, unda neologizmlarni tanlab olish mezonlari haddan tashqari keng bo'lgan. Lug'atga “bir kunlik so'zlar”, tor doiradagi texnik terminlar va hatto slenglarning kiritilishi ilmiy doiralarda e'tirozlarga sabab bo'lgan. Bu borada o'zbek leksikografi Shomaqsud Shorahmedovning fikrlari e'tiborli: “Izohli lug'at tuzuvchisi nafaqat yig'uvchi, balki saralovchi hamdir. Lug'atga kiritilayotgan har bir birlik adabiy til me'yoriga mosligi va xalq iste'molida barqarorligi nuqtai nazaridan tekshirilishi shart” [8. 89]. Hozirgi ingliz tili lug'at tarkibining periferiyasiga kiradigan so'zlarning yoki ularning tilda yashashi vaqt bo'yicha nihoyatda cheklangan bu guruhini qayd qilish adabiy tilni ifloslantiradi hamda ular haqidagi noto'g'ri tasavvurni keltirib chiqaradi.

Xulosa. Yuqorida bayon qilinganlarga asosan quyidagicha xulosa chiqarish mumkinki, yangi tor mutaxassislikka oid terminlar va bir kunlik so'zlar, qoidaga ko'ra, Lug'atda ularning maxsus yoki (vaqt bo'yicha) cheklangan qo'llanilishi haqidagi tegishli belgilarisiz hozir bo'ladilar. Shunday qilib haqiqatan ham umumadabiy tilning faktlari hisoblangan so'zlar bilan teng xuquqlarda chiqadilar.

Bularning hammasi hozirgi ingliz adabiy tili lug'at tarkibining xarakteri va haqiqiy chegaralari haqida uncha ham to'g'ri bo'lmagan tasavvurni vujudga keltiradi.

ADABIYOTLAR

1. Будагов Р.Э. Введение в науку о языке. -М., Учпедгиз, 1958. -С. 428.
2. Галкина-Федорук Е.М., Горшкова К.В., Шанский Н.М. Современный русский язык. -М., Изд. УРСС, 2019. -С. 408.
3. Кузнецова Н.Н. О неологизмах в немецком языке. УЗ ЛГУ, 1959. № 253, вып. 45, -С. 61-68.
4. Линский С.С. Способы введения и популяризации неологизмов, употребляемые английскими писателями и лексикографами XVI века. ДВГУ, 1962. вып. IV, -С. 19-24.
5. Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 160.
6. Ожегов С.И. О трех типах толковых словарей современного русского языка. ВЯ, 1952. № 2, -С. 85-103.
7. Фельдман Н.И. Окказиональные слова и лексикография. ВЯ, 1957. № 4, -С. 64-73.
8. Шорахмедов Ш. Ўзбек тили лексикографияси масалалари. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 240.
9. Berg P. A Dictionary of New Words. -L., 1953. -P. 176.
10. Ives S. A Review of Webster's Third New International Dictionary. “Word Study”. Springfield, Mass., 1961. vol. XXXVII, N 2, -P. 1-8.
11. Webster's third new international dictionary of the English language. Unabridged. Editor in chief: Philip B. Gove. Merriam-Webster, 2002. P. 2783.